# MAKTABGACHA TA'LIM JARAYONINI INDIVIDUALLASHTIRISH

**Rahmonova Feruza Bahromjon qizi,**
FarDU Sirtqi bo'limi ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga individual yondashuv shakllari tahlil qilinadi. Individuallikning o'ziga xos jihatlari, bolalarning faollik markazlarida ishlash jarayonida shaxsiy qobilyatlarini namoyon bo'lish jihatlari haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Tarbiyachi, bola, individuallik, yondashuv, rejalashtirish, kun tartibi, mashg'ulot, rivojlanish, faollik markazlari.

## KIRISH

Tarbiyachilar – bolalarning maqsadga qanday erishishni, boshqalar to'g'risida g'amxo'rlik qila olish va o'z olamlariga ta'sir ko'rsatishga qobil bo'lgan, faol, harakatchan insonlar bo'lib yetishishlari uchun zamin yaratadilar. Shu bilan birga tarbiyachilarni bolalikning ilk davri o'z-o'zicha qanday o'tishi tashvishlantiradi. Bunday yo'l tutishda o'yinlar alohida rol o'ynashi va o'rganish jarayonini individual tarzda tashkil etish muhimligini tan olish lozim. Individuallashtirish har bir bolaning muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini kafolatlaydigan rivojlanish darajasini hisobga olish va faoliyat turlarini mos ravishda rejalashtirish hisobiga qo'lga kiritiladi. Buning uchun bolaning sog'ligi, jismoniy va hissiy rivojlanish darajasi, shuningdek, kongnitiv o'sishi to'g'risida har tomonlama axborot talab etiladi. Tarbiyachining ishi qarorlar qabul qilishdan iborat bo'lib, bu davrda u bolani kuzatadi, bola o'sishning ahamiyatli sohalarida qaysi bosqichda turganligini aniqlaydi va shu asosda u yoki bu ta'sir etish yo'llarini belgilaydi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asoslari E.V. Bondarevskaya,[1] V.A. Petrovskiy[2], I.S. Yakimanskaya[3] va boshqalar o'rganilgan. Shaxs-faoliyat yondashuvining xususiyatlari I.A Zimnyaya[4] o'rganilgan. O'qituvchi-novatorlarni izlash va amaliy izlash Sh.A. Amonashvili[5], I.P. Volkov,[6] E.N. Ilin, S.N. Lisenkova, V.F.Shatalov va boshqalar tomonidan ko'rib chiqilayotgan davr tadqiqotlaridan ajralib turadi. Ulardan ba'zilari ko'proq o'quvchilar faoliyatining instrumental o'rganilgan.

Respullikamiz olimlari tomonidan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda atrof-muxitga ma'suliyatli munosabatni shakllantirish metodikasi bo'yicha M.R.Xalilova, ta'limning turli bosqichlarida tarbiyalashning pedagogik asoslari M.Ochilov, K.Hoshimov, R.H.Jo'raev, O.Musurmonova, S.Nishonova, U.I.Mahkamov, M.Inomova, M.Quronov, S.Ochilov, N.O.Ortiqov, Sh.T.Xalilova, N.M.Egamberdieva, Sh.S.Shodmonova, Q.Quronboev, Sh.Olimov, G.Maxmutova, N.N.Djamilova, maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatining mazmuni, maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy, jismoniy va psixologik jihatdan tarbiyalash, ularda muomala madaniyati va nutq ko'nikmalarini hosil qilish, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash muammolari tahlil etish. G.P.Yusupova, R.M.Qodirova, D.Abdurahimova, X.B.Tulenova, D.R.Boboeva, G.X.Jumasheva, X.I.Kasimova, M.Sh.Rasulova, M.A.Solihova, K.S.Shodieva, Sh.A.Sodiqovalar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan.

## MUHOKAMALAR

Ta'limni individuallashtirish nima uchun muhim? Individuallashtirish bilimlarni egallash jarayoni asosida bolada yoshiga xos xususiyatlar, qobiliyat, qiziqish va ehtiyojlarning paydo

bo'lishiga olib keladi. Bunda bolalar chuqur bilimga ega bo'ladi va o'zini o'zi hurmat qilishga o'rganadi. Ularda yanada qiyinroq vazifalarga qo'l urishga jur'at qila olish hissi paydo bo'ladi.

Bolaga mo'ljallangan muhit ta'limni individuallashtirishga imkon beradi. Guruh xonasidagi jihozlar, materiallar va narsalarning joylashishi har bir bolaning o'sishi va kamol topishi uchun xizmat qiladi, berilgan topshiriqlar ham har bir bolaning bajara olish imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan. Bolalarning o'zlari tegishli faollik markazini yoki o'n ikki emas, balki besh bo'lakdan yig'iladigan rasmni tanlash orqali individuallashtirishni amalga oshira boshlaydilar. Individuallashtirishda tarbiyachi shunday faoliyat turlarini o'ylab topadiki, unda barchaga birdek ko'rsatma berilsa-da, biroq har bir bola undan kelib chiqqan holda o'zi mustaqil ravishda muvaffaqiyatga erishishiga imkon beriladi. Individuallashtirish darajasini optimallashtirish mumkin. Epchillik va topqirlik talab etiladigan faoliyat turini tanlagan va bolalarni diqqat bilan kuzatgan holda tarbiyachi zaruriyat tug'ilib qolsa topshiriq va materiallarni o'zgartirishi yoki moslashtirishi mumkin. Guruh ishlarini individuallashtirish darajasini oshirish maqsadida, kichik guruhlarda o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Guruh mashg'ulotlari jadvali har bir bolaning ehtiyojini faol ijod davrida ham, dam olish paytida ham hisobga olgan holda tuzilishi zarur. Individuallashtirish mazkur dasturning muhim qismi hisoblanadi. Negaki, tarbiyachi har bir bolaga qanchalik individual yondashsa, uning ishi shunchalik samarali bo'ladi.

Faollik markazlari bolalarga o'zlarining shaxsiy ko'nikmalari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda o'quv tarbiya jarayonini mustaqil individuallashtirish imkoniyatini beradi. Masalan, san'at markazida bir bola qog'oz qirqadi, boshqa bola esa shu qog'ozdan qaychi bilan o'zi o'ylagan shaklchani kesib oladi. Stol ustida o'ynaladigan o'yinlar markazida bir bola to'rtta yog'och kubikdan shakl yasaydi, boshqa birovi esa yigirma besh bo'lakli karton qog'ozli tasvirni tuzishni ma'qul ko'radi. Tarbiyachi jarayonda bolalarni kuzatadi va ularning rivojlanishiga daxldor fikrlarni yozib boradi. Ancha vaqtdan so'ng u bolalarga vazifani murakkablashtiruvchi materiallarni taklif etadi yoki vaziyatga qarab ana shu vazifalarni bajarishda bolaga to'g'ridan to'g'ri yordam beradi.

Bunday yo'l tutish tufayli bola yaxshi sur'atda o'sib-ulg'ayishi mumkin. Bolaning individual qiziqishi va o'sish darajasiga mos keluvchi materiallarga boy hamda tajriba to'plash imkoniyati mavjud bo'lgan muhitdir.

Tarbiyachilar dasturda bolalarning yordamchilari rolini o'ynaydilar, mashg'ulotlar olib boriladigan joyda imkoniyatlar kengligini ta'min etadilar va har bir bola individual rivojlanishi darajasini hisobga olgan holda faoliyat turlarini rejalashtiradilar. Kun tartibi turli mashg'ulot turlarini o'zida qamrab olishi lozim: kichik guruhlarda birgalikda va tarbiyachi rahbarligida yakka holda (individual) yoki mustaqil (ular tomonidan tanlagan mashg'ulotlarga vaqt ajratish kerak, chunki bolalar ongli tanlab olishni o'rganadilar, o'z qiziqish va qobiliyatlarini amalga oshiradilar). Bolalarning o'z tanlovlarini amalga oshirishi, muammolarni hal etishi, atrofdagi kishilar bilan birgalikda harakat qilishi, individual maqsad qo'yishi va unga erishishni bilishlari «Bolaga yo'naltirilgan ta'lim»dan ko'zlangan asosiy maqsadlar sirasiga kiradi.

**NATIJALAR**

Bir mashg'ulotdan boshqasiga o'tish ko'p hollarda bolalar va tarbiyachilar uchun muammoga aylanadi. Shunday ham bo'ladiki, tarbiyachilar bolalarning bir mashg'ulotni tugallab ikkinchisiga o'tishlari uchun juda oz vaqt qoldirib, ularni shoshirib qo'yadilar. Agar mashg'ulotlar jadvali bolalar o'zlari uchun qulay ritmda ishlay oladigan darajada moslashuvchan qilib tuzilsa,

mashg'ulotdan mashg'ulotga o'tish muammosini bartaraf qilish mumkin. Hatto kun uchun tuzilgan aniq-ravshan jadval mavjud bo'lganda ham tarbiyachilar bolalarning oldingi ishni tamomlay olishlari va keyingi mashg'ulotga o'tishlari uchun yetarli vaqt ajratishlari lozim.

Tarbiyachilar bolalarning ishlariga nisbatan hurmat bilan qarashlarini namoyish etishlari va ularga mashg'ulotlarni tanlash variantlarini berishlari zarur. Quyida mashg'ulotdan-mashg'ulotga o'tishni uyg'un tashkil etish yuzasidan ko'riladigan choralardan namunalar keltiriladi:

• Mashg'ulotdan mashg'ulotga o'tish haqida bolalarni oldindan ogohlantiring: «Bu musiqa tugagandan so'ng, biz tushlikka tayyorlana boshlaymiz» yoki (katta yoshli bolalar uchun) "Tushlikkacha o'n minut qoldi", so'ngra — "Besh minut qoldi..." va hokazo.

• Tarbiyachi xona bo'ylab aylanib yuradi va bolalarning boshqa mashg'ulotga o'tishga tayyorgarlik ko'rishlariga yordamlashadi: "Men sizlarga plastilinni qutiga solishda yordam beraman".

• Bolalarga bajarayotgan ishni tugallashlari uchun yetarli vaqt bering. Tamomlab bo'lganlarga kitob o'qishni taklif qiling.

• Kun uchun tuzilgan jadvalda zimmasiga mashg'ulotlar oxirida o'yinchoqlarni va materiallarni yig'ipgtirish yuklatilgan navbatchilarning ismini yozib qo'iing.

• Qandaydir mashg'ulotga qiziqib qolgan bolalarga keyinroq yana o'z mashg'ulotlariga qaytishga imkon bering: ularning yoyib qo'yilgan o'yinchoqlari va materiallari yoniga «Tegmang!» deb yozilgan doskachani joylashtirish mumkin.

**Mavzuli loyihalarni rejalashtirish**

Bolalarga ta'lim berish va ularning o'sishi integratsiya (uyg'un)lashgan jarayon: bolaning rivojlanishining har bir sohasi boshqa sohalar bilan bog'liq. O'zlari uchun qiziqarli bo'lgan ishni bajarar ekanlar, bolalar o'zlari uchun yangi axborot oladilar va undan tegishli xulosalar chiqaradilar. U yoki bu muammoni hal etishda bolalar arifmetik yoki lisoniy ko'nikmalardan foydalanishlari, sinab ko'rish va xatolarga yo'l qo'yish usullarini qo'llashlari mumkin. Bolalardagi bunday qobiliyatlar rivojlanishini muayyan sohalari bo'yicha alohida emas, ularga bir butun majmua sifatida qarash lozim. O'qitish jarayoni turli sohalarni o'zaro bog'liqligi hamda integratsiyalashuvi asnosida kechadi.

Tadqiqotlarning natijalari shuni ko'rsatadiki, bolalar biron-bir yangi narsani inson miyasining bir paytning o'zida katta hajmdagi axborotni, sensor hissiyotlar, tuyg'ular va sezgilarni qayta ishlashga qodir bo'lgan ulkan qobiliyati tufayli o'rganadi. Fikrlash qobiliyatining rivojlanishi tashqi omillar ta'siri tufayli yuzaga keladi. Bolalar tomonidan xilma-xil va murakkab tajribalarning qabul qilinishga ko'mak beruvchi boy atrof-muhit ularda tafakkur moslashuvchanligiga olib keladi. Bolalarning ijodiy iqtidorini rag'batlantirish uchun ularni yetarli miqdorda turli-tuman materiallar bilan ta'minlash «integratsiyalashgan» ta'limning optimallashuviga xizmat qiladi. Birlashgan loyihalar va mavzular doirasida mashg'ulotlar tashkil etish orqali bolalarning ularni o'rab turgan dunyo bilan bilish aloqalarning o'rnatilishiga ko'mak beradigan tarbiyachilar bolalarning motivatsiyasi oshganligi va ta'lim jarayonining tezlashganligiga shaxsan ishonch hosil qiladilar.

**XULOSALAR**

Mutaxassislar bolalarni qo'zg'atish va faolligini ta'minlashga turli mashg'ulotlar mazmunini uyg'unlashtirish va ushbu mazmunini turli usullar orqali yetkazish hamda unda bolalarning o'z munosabatlarini ifoda etishlariga imkon berish asnosida erishiladi, deb hisoblashadi.

«Bolaga yo'naltirilgan ta'lim» dasturi bo'icha qo'llanayotgan guruhlarda mavzuli markazlar bolalarning muayyan ehtiyojlari bilan bog'liq holda istalgan paytda o'zgartirish imkonini beradigan tarzda tashkil qiladi. U yoki bu mavzu bo'yicha mashg'ulotlarni yoki loyihalarni tashkil etish tashabbusi tarbiyachilar tomonidan yoki bolalarning o'zlari tomonidan ko'rib chiqilishi, qabul qilinishi mumkin. Loyiha asosida bolalaning yoki bolalar guruhining ushbu mavzuga bo'lgan qiziqishi yotishi lozim. Agar loyiHani amalga oshirish jarayonida bolalarning unga bo'lgan qiziqishi susaymasa, loyihani kontseptuallashtirish va rivojlantirish mumkin. Buni tarbiyachilar ham, bolalarning o'zlari ham qila oladilar.

Tarbiyachilar loyihalarni amalga oshirishning yoki mavzuga doir mashg'ulotlar o'tkazilishining tashabbuskorlari sifatida chiqishlari mumkin, lekin ular bolalar uchun qiziqarli bo'lmasa, kutilgan natijani bermaydi. Ya'ni, bolalar bu mavzuni o'zlarida tug'ilgan savollar tufayli ko'tarib chiqqan xollardagina ularda u yoki bu mavzuni ishlab chiqish uchun motivatsiya yuzaga keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Бондаревская Э.В. Талабаларга йўналтирилган таълим назарияси ва амалиёти. - Ростов-на-Дону: Ростов педагогика университети нашриёти, 2000.-352 п.
2. Петровский В.А. Шахсият фаолият предмети сифатида // Шахсият психологияси. Т. 2. Ўқувчи / Таркиб. Д.Я. Раигородский. Самара: "Баҳракҳ-м" нашриёти, 2000. - С. 467-488.
3. Якиманская И.С. Замонавий мактабда шахсга йўналтирилган таълим. М.: Сентябр, 1996. - 95 п.
4. Зимняя, И. А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата современного образования [Электронный ресурс] / И. А. Зимняя // Интернет-журнал «Эйдос». – 2006. – 5 мая. – Режим доступа: http://www.eidos.ru/journal/2006/0505.htm
5. Амонашвили Ш.А. Болаларга нисбатан инсонпарварлик ва шахсий муносабат. М.: Амалий психология институти; Воронеж: НПО МОДЭК, 1998. - 539 п.
6. Vosiljonov, A. (2022). Basic theoretical principles of corpus linguistics. *Academicia Globe: Inderscience Research*, *3*(2), 1-3.
7. Vosiljonov, A. (2022). LINGVISTIK TADQIQOTLARDA KORPUS O 'RGANISH OBYEKTI SIFATIDA. *IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, *2*(11), 176-182.
8. Vosiljonov, A. (2022). PRAGMALINGVISTIKA VA UNING TAHLILIY SHAKLLANISH TARIXI. *Science and innovation*, *1*(B8), 99-105.
9. Vosiljonov, A. (2022). PRAGMALINGUISTICS AND THE HISTORY OF ITS ANALYTICAL DEVELOPMENT. *Science and Innovation*, *1*(8), 99-105.
10. Vosiljonov, A., & Isaqova, X. (2023). EFFECTIVENESS OF MOTHER TONGUE EDUCATION IN THE PRIMARY GRADES. *International journal of advanced research in education, technology and management*, *2*(2).
11. Buzrukova, D. M. (2023). "MUHABBAT" HISSIY KONSEPTINING TURLI LINGVOMADANIYAT VAKILLARI IDROKIDAGI TASVIRI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, *3*(1), 178-183.
12. Бузрукова, Д. (2022). ҲИС-ТУЙҒУЛАР УНИВЕРСАЛЛИГИ ВА ҲИССИЙ-ЛИСОНИЙ ОЛАМ МАНЗАРАСИГА ПСИХОЛИНГВИСТИК ЁНДАШУВ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(11), 239-242.
13. Mamurkhanovna, D. B. (2022). The Concept Of "Love" As An Important Element Of The Emotional World Landscape. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*, *7*(5), 95-98.

14. Tursunova, D. T., Abobakirova, O. N., Buzrukova, D. M., Mahmudova, O. T., Ubaydullayeva, Z. H., & Kholmatova, N. N. (2022). Principal Principles And Important Factors Of Student Women's Social Activity. *Journal of Positive School Psychology*, 6262-6269.

15. Buzrukova, D. M. M. (2023). TARBIYACHI VA OTA-ONALARNING O ‘ZARO HURMATGA ASOSLANGAN MULOQOTINING KALIT FAKTORLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *3*(4), 793-797.

16. Buzrukova, D. M. (2023). Muhabbat" konseptining lingvomadaniy o'ziga xosligi. *FarDU. ILMIY XABARLAR*, *1*, 318-321.

WORDLY KNOWLEDGE